

AVTOKLAVLI SILIKAT MATERIALLAR OLISHDA MAHALLIY QUMLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Atajanova D.R

Urganch davlat universiteti magistranti

Silkat g'isht ishlab chiqarishning asosiy xom ashyosi bo'lgan qumning mahalliy zahiralari topish va undan maqsadli, raqobatbardosh silikat mahsulotlar olishni amalgam oshirish uchun Xorazm viloyatidagi mavjud qum barbanlarining fizik, kimyoviy va mexanik xossalari o'rganildi. Qoraqum barhan qumlari koni Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani markazidan 10 km shimoliy g'arbida joylashgan. Bu qumlar qurilish uchun va silikat g'isht mahsulotlari olish mahsadida "Himgeolnerud"ning Toshgeologiya tashkiloti tomonidan 1987-1989 yillar davomida qumlar Xorazm viloyati Bog'ot tumani Sho'rko'l hududidan boshlab Xorazm viloyatining Turkmaniston davlati bilan chegara qismi bo'ylab Shovot tumani hududiga qadar cho'zilgan. qatlam qalinligi 2-14 m, ba'zi joylarida 20 m gacha borib, qum rangsiz, och sariq, sariq ranglarda ignasimon, o'tkir qirrali donachalardan iborat bo'lgan sochiluvchan massa. Chunki qumning granullometrik tarkibi va dag'allik darajasi hamda qatlamning chuqur qismi etarli darajada o'rganilmagan. Tadqiqotlar uchun qo'shko'pir tumani Jayhun massivi yaqinidan namunalar olindi. Namunalar eraning ustki qismidan va quyi qismidan 2-3 m chuqurlikdan olindi. Namunalar konturning bir nechta joyidan olindi va har bir namuna nomerlandi, keyinchalik o'rtacha namunaga qadar o'zaro aralashtirilib o'rtacha namuna tayyorlandi.

Laboratoriya sharoitida tayyorlangan namunalar minerallogik, kimyoviy va granullometrik ko'rsatkichlarini aniqlash uchun ixtisoslashgan laboratoriyaga taqdim qilindi. Mikroskop ostida qum donachalarini kuzatish orqali qum och yashil, yashil ranglarda ignasimon, o'tkir qirrali donachalardan iborat ekanligi qayd qilindi. qumdonachalarining grannullometrik tarkibini o'rganish Xorazm Ma'mun akademiyasi laboratoriyasi sharoitida elakli usulda aniqlandi. Olingan natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan.

Jadval 1

Qoraqum barhan qumlarini qumlarining granulometrik tarkibi

Sifatlar, mm	Miqdori, %	
	Quruq usul	Ho'l usul
0,85 + 0,60	2,0	3,0
-0,60 + 0,40	8,5	7,5
-0,40 + 0,30	5,0	4,0
-0,30 + 0,20	21,0	15,0
-0,20 + 0,16	49,0	50,0
-0,16 + 0,10	13,5	19,5
-0,10	1,0	2,0

Namunalarning kimyoviy tahlili an'anaviy tadqiqot usullarida tahlil qilinib olingan natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan.

Jadval 2

Qoraqum barhan qumlarining boyitilmagan namunasining kimyoviy tarkibi

Na-muna-	Oksidlar miqdori, mass. %								
	SiO ₂	Al ₂ O ₃	Fe ₂ O ₃	CaO	MgO	K ₂ O	Na ₂ O	SO ₃	к.к.м
1	81,54	6,78	1,00	1,50	0,32	0,72	0,91	0,50	4,20
2	82,29	6,61	1,12	2,16	0,40	0,86	1,11	0,82	3,16
3	83,18	6,74	0,96	1,77	0,27	0,64	0,86	0,16	4,03
4	85,46	2,91	1,28	1,68	0,53	0,70	0,94	0,20	3,76
5	86,19	1,14	1,44	2,08	0,42	0,84	1,07	0,16	4,22
	77,56	1,00	1,08	1,56	0,44	0,80	1,02	0,12	3,92

Boyitishga oid tadqiqotlar laboratoriya sharoitida mehanik(maydalash, ishqalash, mehanik faollashtirish), elektromagnit maydon ta'sir qildirib(kuchsiz magnit maydoni ta'sir qildirish hisobiga), kimyoviy usullarni qo'llab olib borildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Рахимов Р.А., Ботвина Л.М. Физико-химические свойства ячеистого бетона из барханных песков // Тр. НТК. ТХТИ/ЛХ «Илмий-назарий ва техникавий анжуман».-Ташкент, 2000.-С.18.